



## BOLA TARBIYASIDA MILLIY KUY-QO'SHIQLARNING AHAMIYATI

**Muallif:** Gulnoza Siddiqova<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14378815>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kelajak avlod tarbiyasida milliy kuy-qo'shiqlar va milliy o'lnlarning ahamiyati, ajdodlarimizdan qolgan boy madaniy merosni asrab-avaylab, o'z xolicha avlodlarga yetkazish to'g'risida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** ma'suliyat, alla, an'ana, mehr, madaniy meros, voris, e'tibor, etiqod.

Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasida ota-onalar, mahalla-ko'y, shuningdek mutassadi tashkilot va idoralar birdek ma'suldirlar. Oliy majlis qonunchilik palatasida bu borada qator me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, qator loyihalar tasdiqlanmoqda.

Gar shunday ekan, milliy an'analarimiz va milliy urf odatlarimiz bilan yo'g'rilgan milliy kuy-qo'shiqlarimizning ahvoli qay darajada? Bola tarbiyasida yo'qolib borayotgan xalq qo'shiqlari-yu, milliy mumtoz kuylarning tarbiyaviy ahamiyati bormikan? Bunday savollarga javob berish uchun hozirgi yoshlarimizni qiziqishi-yu, kundalik eshitayotgan qo'shiqlarini tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qaratsak.

O'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan azaliy ezgu fazilatlardan biri – bolajonlikdir. Shoir aytganidek “Dunyoda bolam deb yashaydi- o'zbek”.

Shu bois mamlakatimizda har yili “Birinchi iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” sifatida keng nishonlanib kelinadi. Shunday ekan yurtimizda o'sib ulg'ayayotgan yosh avlod hech kimdan kam bo'lmay voyaga yetishi va kamol topishi yo'lida barcha shart-sharoitlar yaratilib ularni ta'lim-tarbiyasini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maqsad o'sib kelayotga kelajak avlod tinch va osuda hayotda, sog'lom turmush tarzida yashab, unitilib ketayotgan milliy xalq qo'shiqlarini va raqs, kuylarini zamonaviy kuy-qo'shiqlar bilan chalkashtirib yubormay, zamonaviy oxanglar bilan badiylashtirib ajdodlarga yetkazish.

Ma'lumki bola tarbiyasi ona qornidayoq boshlanadi. Darhaqiqat, o'zbek millatining chiroyli urf-odatlar va an'analar ko'p. Shulardan biri momolar, buvilar chaqaloq yetti kunlik bo'lganda “Beshikka solish” marosimini o'tkazadilar. Beshik ustidan sochalosh ya'ni (shirinliklar, yong'oqlar) sochilib, chaqaloqni onasini beshikni tebratib alla aytishga undaydilar. Ona shu kundan boshlab o'z bolasiga butun mehrini berib alla ayta boshlaydi. Allada mehr bor, sirli bir sehr bor. Alla eshitgan har qanday bola qulog'iga yoqimli ohang bilan birga shirin tuyg'ular, yuraklarni sel qilib xis-hayajonni uyg'otuvchi

so'zlar aytiladi. Dunyodagi jamiki ayol borki, alla aytishni orzu qiladi. Onalik baxtiga erishgan o'zbek ayolining allasi esa, qo'shiqlar ichida eng yoqimli va eng chiroylisidir.

Alla aytay jonim bolam,  
Uxlab qolgin alla-yo.  
Shirin allam tinglab, asta  
Orom olgin alla-yo.

Ha, alla ohangi bilan o'sib ulg'aygan bola tarbiyasi, yumshoq ko'ngilli, vatanparvar, do'stiga sadoqatli, yoru-brodariga yordamini ayamaydigan, haqiqiy mard inson bo'lib ulg'ayadi degan gaplarni ham aynan onalarimiz aytishgan. Xo'sh shunday ekan, yomon hulqli, tarbiyasi og'ir, jamiyatga foydasidan ko'p zarari tegadigan yoshlarni kim voyaga yetkazgan. Axir ularni ham ona dunyoga keltirgan-ku yoki ularning qulog'iga alla kirmaganmi? Gar birgina alla qo'shig'ini bola tarbiyasida shunchalik ta'siri bor ekan, nega bunga jiddiyroq ahamiyat bermiyimiz? Yoki hozirgi yosh, zamonaviy, o'qimishli onalarimiz alla aytishni or bilishadimi?

Hozir zamonamiz tinch, yurtimiz obod. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" shiori ostida barcha ezgu ishlar kelajak avlodga qaratilmoqda. Shunday ekan bolalar uchun yaratilayotgan jamiki narsalar qanchalik qulay va foydali bo'lmasin ona allasi bilan o'rnini almashtirib bo'lmaydi. "Inson tanasiga kuy bilan -jon ato etilgan" degan gapning zamiriga nazar tashlaydigan bo'lsak, inson tirik ekan uning tarbiyasida musiqa ham tarbiya o'chog'i sifatida ta'sir etishini inkor etib bo'lmaydi.

Umumta'lim maktabiga borgan bolalar estetika fanlari qatorida musiqa fanini o'rgana boshlaydilar. Musiqa va ashula dars soatlari esa yillik o'quv reja bo'yicha haftasiga atigi bir soatdan to'g'ri keladi.

Eng achinarli tomoni shundaki, bola o'sish yoshida o'ziga zarur va qiziqishi kuchli bo'lgan fanni bir haftada bir marta o'zlashtiradi, musiqa o'qituvchisi esa bolalar uchun milliy kuy qo'shiqlarni chuqurroq singdirishga kam vaqt ajratadi. Chunki o'quv rejada berilgan mavzuni o'tishga majbur. Bir haftada o'qituvchi qanchalik kuchli va zarur bilimni bermasin kelgusi haftadagi musiqa darsigacha bolada ancha sog'inish va zerikish hosil bo'ladi. Natijada milliy kuy qo'shiqlardan ko'ra, hoxlagan zamonaviy kuy - qo'shiqlarni eshitishga majbur bo'ladi, milliy kuy-qo'shiqlarga bo'lgan e'tibor susayadi.

Azal-azaldan ma'lumki bolalarimiz va momolarimiz xalq qo'shiqlari yordamida milliy o'yinlar o'tkazishgan. Bulardan "Beshqarsak", "Boychechak", "Berkinmachoq", "Oq-terakmi-ko'k terak", "Yomg'ir-yog'aloq" va hokazo qo'shiqlar aytish bilan birga milliy harakatli o'yinlarni ham bajarganlar.

Bunday o'yinlar bola tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalar bog'chasidanoq e'tibor berilishi zarur. Har bir bog'cha tarbiyachisi guruh bolalari bilan ishlashda albatta musiqa mutaxassisi bilan kelishgan holda har xil harakatli o'yinlar, milliy ruhdagi kuy qo'shiqlardan keng foydalanishi kerak. Umumta'lim maktablarida esa gar musiqa soatlari kam ekan, darsdan tashqari musiqa to'garaklariga alohida ahamiyat berib, ish faoliyatni kuchaytirish zarur. Poytaxtimizdagi umumta'lim maktablarida, darsdan tashqari to'garaklarda, musiqa va san'at maktablarida, musiqaga ixtisoslashgan maktablarda musiqaga bo'lgan e'tibor arzigulik darajada. Buni televideniya orqali berib borilayotgan ko'rsatuvlarda va radio orqali berilayotgan eshittirishlardan ham bilsa bo'ladi. Ammo respublikamizning turli viloyat va tumanlarida ham ahvol shu darajadamikan? Agar biz bu xolga e'tiborni kuchaytirib, nazoratni qo'lga olmasak

kelajagimiz poydevori bo'lgan farzandlarimiz milliy merosimiz bo'lgan "Shashmaqom"ni, unda jamlangan kuy-qo'shiqlarni, ajdodlardan meros o'tib kelayotgan xalq qo'shiqlari-yu, laparlarni eshitishdan mahrum bo'lib, o'zligimizni, qolaversa milliy kuy-qo'shiqlarimizni eshitishga ojizlik qilib qolmaydilar mi?

Xulosa sifatida aytish joizki, bo'lajak onalarimizga shuni aytmoqchimizki bolaga tarbiya berishni tug'ilganda emas, ona qornidayoq boshlash zarur. Chunki homiladorlik vaqtida ko'proq milliy ruhdagi kuy-qo'shiqlarni tinglasalar, bir kunda hech bo'lmaganda bitta o'zbek milliy mumtoz kuylaridan eshitsalar, asab tizimini mustaxkamlash bilan birga salomatliklari uchun va tug'ilajak farzandlarining sog'lom dunyoga kelishining aniq kafolatidir.

Bola tarbiyasida milliy kuy-qo'shiqlarga bo'lgan e'tiborni vaqtida yo'lga qo'ymas ekanmiz, farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz ma'lum ma'noda besamara bo'lishi muqarrar. Zero, ajdodlarimizdan qolgan boy madaniy merosni asrab-avaylab, o'z xolicha avlodlarga yetkazish bola tarbiyasida odob-ahloqiga bo'lgan e'tibor va mas'uliyatni yanada oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Panjiyev Q.B. Musiqa o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. 2023. 306 b.  
Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. Darslik. Toshkent. 2017  
Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62.  
Karabaev U. Etnokultura (Traditsionnaya narodnaya kultura): Ucheb. Posobie Toshkent, Sharq. 2005. St. - 240.

